

## Key Aspects In The Upbringing Of Children Growing Up In Incomplete Families

**Oripova Ruhshonabonu Murodbek qizi**

Andijan State Pedagogical Institute

Faculty of Pedagogy Pedagogy

1st year student, group 101

### Annotation

This article discusses urgent issues regarding the upbringing of children growing up in incomplete families. It analyzes the psychological, social, and moral problems arising from the absence of one or both parents, as well as the key aspects that need attention in child upbringing under such circumstances. Specifically, emotional support, stable discipline, social adaptation, the influence of role models, and the provision of psychological assistance are thoroughly examined. The article includes practical recommendations for educators, psychologists, and parents.

**Keywords:** incomplete family, upbringing, child psychology, emotional support, social adaptation, role model, discipline, mental development, pedagogical approach.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada to'liqsiz oilalarda voyaga yetayotgan farzandlarning tarbiyasiga oid dolzarb masalalar yoritilgan. Ota yoki onaning yo'qligi sababli yuzaga keladigan psixologik, ijtimoiy va axloqiy muammolar, shuningdek, bunday holatlarda farzand tarbiyasida e'tibor berilishi zarur bo'lgan asosiy jihatlar tahlil etilgan. Jumladan, emotsional qo'llab-quvvatlash, barqaror intizom, ijtimoiy moslashuv, rol modellarning ta'siri va psixologik yordam ko'rsatish kabi omillar alohida ko'rib chiqilgan. Maqola pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** to'liqsiz oila, tarbiya, farzand psixologiyasi, emotsional qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, rol modeli, intizom, ruhiy rivojlanish, pedagogik yondashuv.

**Oila** — har bir insonning hayotida birinchi va eng muhim tarbiya maskanidir. Bolaning ruhiy, aqliy, ijtimoiy va axloqiy kamolotida oilaning tutgan o'rnini beqiyosdir. Afsuski, turli sabablar bilan ba'zi oilalar to'liqsiz holatda — ya'ni ota yoki onasiz faoliyat yuritadi. Bunday vaziyatda voyaga yetayotgan farzandlar alohida e'tibor va yondashuvni talab qiladi. To'liqsiz oilada ulg'ayayotgan bolalarda hissiy beqarorlik, o'zini yolg'iz his qilish, jamoadan ajralib qolish, shaxsiy ishonchsizlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ularning tarbiyasida pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu mavzu ijtimoiy va ilmiy nuqtayi nazardan o'ta dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqolada to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan farzandlar ruhiy holati, tarbiyadagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek,

**Vol 2. Issue 5 (2025)**

e'tibor berilishi lozim bo'lgan pedagogik va psixologik jihatlar chuqur tahlil qilinadi.

**To'liqsiz oila** - bu ota yoki onadan biri bo'lmagan oilaviy muhitni anglatadi. Bunday sharoitda farzand tarbiyasi ko'proq sabr, e'tibor va ma'naviy kuch talab qiladi. to'liqsiz oilada ulg'aygan bolalar boshqalarga qaraganda hayotga boshqacha nazar bilan qarashlari mumkin. ular ko'pincha erta mustaqillashadi, lekin ayni vaqtda ruhiy ko'makka ehtiyoji ham ortadi.

Sen yetim emassan, tinchlan, jigarim,  
Quyoshday mehribon Vatanning- onang.  
Zaminday vazmin-u, mehnatkash, mushfiq,  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi.

Xalq bor – otang bor. Cho'chima, jigarim..

**G'afur G'ulom.**

Men so'zimni bejiz bu satrlar orqali boshlamadim. Sherning nomi “ **Sen yetim**

**emassan**”- ham hitob, ham nido bo`lib shu gapning o`zida ham katta qudrat bor. Bu she`r ayni tuyg`u, mehr – shafqat va oliy vatanparvarlik tuyg`isini o`zida mujassam qiladi.

Inson zoti tug`ulibdiki qat`iy belgilangan qonun- qoidalar asosida yashab keladi. Bunga oiladagi o`zaro hurmat, totuvlik va insonlarga bo`lgan ishonch yaqqol misol bo`la oladi. O`zbek xalqining avloddan-avlodaga o`tib kelayotgan bu jihati tahsinga sazavor. Bu jihatlarni shakllantirishda oila beshik vazifasini o`taydi desak mubolag`a bo`lmaydi. Demak, qaysi ma`nodaki, tarbiyada oilaning o`rni beqiyos. Hech birimizga sir emaski bola tarbiyani uch omil orqali shakllantiradi. Bular: irsiyat, jamiyat va eng muhimi oilada oladi.

**“Qush uyasida ko`rganini qiladi”** - deydi dono xalqimiz. Yuqoridagi o`zbek xalq maqolini barcha fikrlarimiz isboti sifatida ko`rishimiz mumkin. Bola tarbiyasida ham otaning, ham onaning o`rni va mehri birdek ahamiyat kasb etadi. Qaysiki tarbiyaning yetishmaganligini, bola jamiyatda o`z o`rnini qanchalik to`g`ri va ishonchli topishida qanday xatolarga yo`l qo`yishida yaqqol namoyon bo`ladi.

Bola tarbiyasi juda murakkab jarayon. Tarbiya uzluksiz va uzoq davom etadi. Shu davr mobaynida inson shaxs sifatida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida ota-onasi, do`stlari, maktab, mahalla, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, atrof- muhit, adabiyot, tabiat va shunga o`xshash omillar bevosita ta`sir ko`rsatadi. Farzand tarbiyasida ota – onaning muomalasi muhim o`rin tutadi. Farzandning o`z yaqinlaridan iliq so`zlarni eshitmay katta bo`lishi, yoki berilayotgan e`tibor, mehrning yetishmasligi jamiyatda **“Ma`naviy kemtik”** insonlarni shakllanishiga qulay fursat yaratadi. Bunday bolalar o`z hayotidan doim norozi bo`ladi. O`ziga ishonchsizlik tuyg`usi bilan yashab, qoniqish hosil qilmaydi. Shunday ekan, farzandni

qiziqishlarini to`g`ri baholab unga kerakli daldani bers ekanmiz jamiyatiolmamizni bundaylardan forig`eta olmaymiz.

Inson to`liqsiz oilada katta bo`lishiga ikki xil omil kuchli ta`sir ko`rsatadi. Bu omillar onaning yoki otaning bevaqt vafot etishi hamda turli kelishmovchiliklar tufayli oilaviy ajrimlarning yuzaga kelishidir.

Odinaxon Otaxonova Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati: **“Xalqimizda bola – poshsho degan naql bor. Shu sababli har bir bola oilaviy muhitda, farovonlikda yashashga va tarbiyalanishga haqli”** – deya o`z fikrini bildirgan. Bundan kelib chiqadiki bolani farovon katta bo`lib, kamol topishi qonuniylik darajasidaligini ekanligini ko`rish mumkin.

Daryo.uz. ning 2024- yil yanvar –iyun oylarida O`zbekistonda **97,4** mingta nikoh qayd etildi. Yarim yil mobaynida nikohdan ajralganlar soni **22,5** mingtani tashkil etdi. Bir nafar farzand bilan ajralishlar soni **6 616** ta ikki va undan ortiq farzand bilan ajralishlar soni **5 372** taga yetgan. Bir qarashda bu oddiy raqamlardek tuyulishi mumkin, ammo, bir necha minglab bolaning ota yoki ona mehriga zor bo`lib o`tishini anglatadi. Bu o`rinda ham ota, ham ona vazifasini va o`rnini bildirmay kelayotganlar ham yo`q emas albatta. Ularning matonatiga alohida to`xtalmasdan iloj yo`q.

Bola ruhiyati juda nozik hisoblanadi. Ota – onalarning uzoq yillar davomida farzandidan ayro holda, tirikchilik ilinjida yurishi ham farzandning ularga mehrini kamayishiga sabab bo`ladi. Abu Hamid G`azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: **“ Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir”**. Ushbu fikrlar orqali biz sharqda farzand tarbiyasi san`at darajasiga ko`tarilganiga bevosita guvoh bo`lishimiz mumkin.

Oila psixologiyasi- oila psixologiyasini o'rganuvchi fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirishni o'ziga maqsad qilib olgan. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oila har bir a'zosining o'rnini belgilashni, er-xotin munosabatini, shaxslararo munosabatini, yosh xususiyatlariga muvofiq muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi. oila psixologiyasi tomonidan to'plangan materiallar oila mustahkamligini saqlash uchun mahallatlar berishda, har bir sotsiologik va psixologik dasturlar tuzishda qo'llaniladi. Shuningdek, oila tiplari, tuzilishi, iyerarxiyasi, ularga ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar ham mazkur sohaning tadqiqot predmetiga kiradi. Oiladagi barcha tushunmovchiliklarni hamda kelib chiqish sabablarini mazkur soha o'rganadi. Bolaning balog'at yoshida ota – ona bilan munosabat har qanday ijtimoiy aloqalar shu yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqida u shunday deb yozgan **“Tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyaga yetadi”**. Darhaqiqat, ushbu yoshda bola hamma narsaga qiziqadi. Psixologlarning fikricha bola 5 yoshgacha o'zini o'rab turgan borliq haqida 70% (foiz) ma'lumotlarni egallaydi.

Farzand bevosita o'z-o'zidan ijtimoiylasha boshlaydi. Kutilmagan vaziyatlarda kutilmagan savollarni bera boshlaydi. **“Dadam qayerda”, “Qachon keladi”,** yoki **“Onam bizni yomon ko'rar ekanda”, “Nima uchun onam yo'q”** degan so'roqlarga javob berishni o'zi bo'lmaydi. Bolaning ushbu savollariga kerakli va o'z o'rnida vaziyatni to'g'ri talqin etish o'rinli albatta.

Bu o'rinda malakali hamda o'z kasbini ustasi bo'lgan pedagoglarning ham o'ni beqiyos albatta. Bu pedagogda shahsiy

tayyorgarlik bo'lishini talab etadi. “Shaxsiy tayyorgarlik – tarbiyalovchi shaxsida qaror topishi lozim bo'lgan sifatlarni o'zida aks ettirib, ularga gnostik (bilishga doir) qobiliyatlar (ilmiy ma'lumotlar bilan ishlay olish, ilmiy bilimlardan amaliyotda oqilona foydalana olish, pedagogikvazifalarni yuksak mahorat bilan hal eta olish) tashkilotchilik qobiliyatlari (ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mashg'ulot shakl, uslub va vositalarini tanlay olish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quv jarayonini zaruriy jihozlar bilan ta'minlash, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkaza olish) kommunikativ qobiliyatlar (ahborotni yosh davrlari bilan bog'liqlikda tushunarli taqdim eta olish, vaziyat bilan bog'liqlikda axborotlarni uzatish uslub va usullarini o'zgartira olish, kasbiy faoliyat jarayonida muloqotni oqilona amalga oshira olish va boshqalar) ni kiritish mumkin. 1 Bunday sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchi bola ruhiyati bilan hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ham yurtimiz farzandlari haqida fikr yuritir ekanlar: **“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning, jahon hamjamiyatidagi obro' - e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib - o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir.”**- deb alohida ta'kidlaganlar. Yana bir ta'lim va tarbiyaga oid fikriga to'htaladigan bo'lsak **“Mamlakatimizning istiqlool yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”**.

**“Go'dak bola 2 oylik vaqtdan boshlab, o'z onasining yuzini va ovozi o'zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining**

**tabassumi va kulgusiga tabassum va turli xarakatlar bilan javob qaytaradi ”** Endi bir tasavvur qilib ko`raylik, huddi shunday vaqtlarda bolaaning ota- onasi yonida bo`lmasa qanday bo`ladi. Oilada paydo bo`lgan bo`shliqni hech bir inson to`ldira olmaydi albatta. B u vaziyatni albatta mahoratli hamda haqiqiy pedagoggina to`g`ri yechim qilishi mumkin.

**“Ikkinchi jahon urushi yillarida saxovatpesha o`zbek xonadonlaridan biri Shomahmudovlar oilasi turli millatga mansub, qarovsiz va yetim qolgan bolalarni farzandlikka olib, ularga ta`lim – tarbiya beradi. Toshkent shahar xotin – qizlarining yurtimiz ayollariga qardosh xalqlarning yetim qolgan va yurtimizga evakuatsiya qilingan bolalarni tarbiyaga olish haqidagi 1942- yil 2- yanvardagi murojaati ularni shahardagi 17- bolalar uyiga olib kelgan.**

**Shomahmudovlar oilasi – insonparvarligi bilan tanilgan toshkentlik oila . Ikkinchi jahon urushi davrida temirchi Shoahmad Shomahmudov xotini Bahri Akramova (1903- 1987 ) turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarni farzandlikka olib, ta`lim – tarbiya bergan. Statistik ma`lumotlarga ko`ra, Ulug` V atan urushi yillarida O`zbekiston SSRga 400 ming bola evakuatsiya qilingan bo`lib, ularning yarmi yetim bolalar edi. Oradan qancha vaqt o`tsa ham insonparvarlikning yuksak namunasi bo`lib kelmoqda”.**

Ikkinchi jahon urushi yillarida Toshkentda yashab, o`z ko`zi bilan ko`rgan mashhur rus yozuvchisi, bolalar shoiri Korney Chukovskiy: **“ Toshkentga kelib , Bolalar uylarining oldida bola olish uchun navbatda turgan odamlarni ko`rib, hayratga tushdim”** , - yozgan edi .

Bizning o`zbek xalqimiz bolajon xalq.” **Bolaning begonasi bo`lmaydi ”** hamda **“ Bir bolaga yetti mahalla ota- ona “** kabi

Vol 2. Issue 5 (2025)

maqollar bejiz kelib chiqmagan. Ayniqsa ota- onasi erta vafot etgan go`daklarga bo`lgan e`tibor katta. Bir jihatdan bu albatta to`g`ri ammo o`sib kelayotgan bolalar ruhiyatiga salbiy ta`sir o`tkazmay qolmaydi. Bolaning ruhiyati cho`kib, har bir **“Mehribonchilik”** ortida ma`nan yolg`izlikni his qiladi. Shunday ekan bunday bolalarga oddiy bolalardek e`tibor qaratish tavsiya etiladi.

Xulosa o`rnida shuni aytishim mumkinki, to`liqsiz oilada voyaga yetayotgan farzandlar tarbiyasi tarbiyasi o`ziga xos yondashuv va e`tiborni talab qilad. bunday sharoitda ulg`ayayotgan bolalarning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi hamda o`zini qadrlash hissi oilaviy to`qlikdan ko`ra ko`proq tashqi omillarga bog`liq bo`ladi. Shu sababli, jamiyat, maktab va yaqin atrofdagilarning qo`llab– quvvatlashi, mehr ko`rsatishi va tushunishi bu farzandlarning sog`lom va barkamol shaxs bo`lib yetishishida muhim rol o`ynaydi. To`liqsiz oila – bu nuqson emas, balki boshqacha sharoit bo`lib, undagi farzandlarga to`g`ri yondashuv orqali ularni hayotda mustahkam tayanchga ega bo`lgan, maqsadli insonlar qilib tarbiyalash mumkin. To`liqsiz oilada ulg`ayayotgan farzandlarning tarbiyasi — bu nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning e`tiborida bo`lishi zarur bo`lgan muhim masalalardan biridir. Ota yoki onaning yo`qligi bolaning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday holatda mehr, e`tibor, intizomli muhit va ijobiy rol modellari orqali tarbiyaviy bo`shliqni to`ldirish mumkin. Farzandning har tomonlama barkamol shaxs bo`lib voyaga yetishi uchun oila, maktab va jamiyat birgalikda harakat qilishi, pedagogik va psixologik yondashuvlar uyg`unlikda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktab o`qituvchilari va ijtimoiy mutaxassislarning e`tiborli, sabrli va doimiy yordami bu bolalarning jamiyatda o`z o`rnini

topishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, to'liqsiz oilalarda tarbiya jarayonini ongli, tizimli va mehr asosida yo'lga qo'yish orqali kelajak avlodning sog'lom, vatanparvar va yetuk inson bo'lib shakllanishiga erishish mumkin.

#### **Tavsiyalar:**

1. To'liqsiz oilalarda ulg'ayayotgan bolalarga alohida pedagogik yondashuv bilan munosabatda bo'lish lozim. Ular bilan ko'proq suhbat qurish, tinglash, tushunishga harakat qilish kerak.
2. Maktab psixologi va sinf rahbarlari bu kabi o'quvchilarning holatidan xabardor bo'lishi va zaruriy yordamni taqdim etishi maqsadga muvofiq.
3. Bunday farzandlar ijtimoiy hayotga faol jalb etilishi — turli to'garaklar, tadbirlar, tanlovlarda ishtirok etishi orqali o'zini jamiyatga kerakli deb his qiladi.
4. Oiladagi boshqa a'zolar (buva-buvilar, opa-akalari) bolaning hayotida faol ishtirok etishlari lozim. Bu orqali farzand mehr va himoyani his qiladi.
5. Ijtimoiy xizmatlar va mahallalarda psixologik maslahat beruvchi markazlar sonini ko'paytirish va ularni faol ishlashini ta'minlash zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Karimova, R. H. Oila va tarbiya muammolari. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
- Xamidova, M. R. Bola psixologiyasi va ijtimoiy moslashuv. — Toshkent: Fan, 2020.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid siyosatga doir nutqlari.
- O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — 2020-yil, yangi tahrir.
- G'ofurova, G. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda ruhiy rivojlanish. — Toshkent: "Ilm ziyo", 2021.
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O'zbekiston Respublikasi qonun va me'yoriy hujjatlari portali.
- [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) — Ta'lim va fan portali.

Mavzuga doir ilmiy maqolalar va psixologik tahliliy tadqiqotlar.